

ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJMAND BOLALAR PSIXOLOGIYASI**Abdullayev Bobur Asqarjonovich****Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)****Murodova Dilsora Dilshodovna****Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti****(Psixologiya faoliyat turlari) magistranti****muradova0307@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14613780>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada alohida ta'limga ehtiyojmand bolalar psixologiyasi va ularga ta'lim berish shakllari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, alohida ta'limga muhtoj, pedagogik-psixologik, qo'llab-quvvatlash, psixologiya, nuqsonli bolalar, o'smir, nogiron.

Mamlakatimizda alohida ta'limga muhtoj bolalarga bo'lgan alohida e'tibor qonun, farmon va huquqiy-normativ hujjatlarda o'z aksini topib bormoqda. Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilishi belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi.

PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan "2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi: Alohida ta'limga muhtoj bolalar ta'lim oladigan muassasalarga qo'yiladigan talablarni sihlab chiqish, ular ta'lim olasigan muassasalarni zarur metodik qo'llanmalar va kerakli jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora- tadbirlar, ta'minlash masalalari, va bir qator chora tadbirlar belgilab olindi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Unda quyidagilar belgilandi:-inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish;-o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari.

Shuningdek ushbu qaror bilan quyidagi me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi:

-Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

-Sanatoriya turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

-Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom.

Ushbu qonunosti xujjatlarida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi, reabilitatsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda erkin, qulay va xavfsiz harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy me'yorlar belgilab qo'yildi. Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Shu o'rinda inklyuziv ta'lim nima degan savolga javob berib o'tsak.

Inklyuziv ta'lim bu - inglizcha so'z bo'lib, **inclusive** qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayoni demakdir. Inklyuziv ta'lim o'quvchilarning imkoniyatlaridan, ularning jismoniy ruxiy cheklanishlarini hisobga olib tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan inklyuziv ta'lim shakli o'z samarasini berib kelmoqda. Imkoniyati cheklangan yoki rivojlanishda ortda qolayotgan bolalar sog'lom bolalar bilan birgalikdagi faoliyati ularni yanada kuch - g'ayratga to'lishlarida va ular ham hech qanday mehr - muhabbat yoki e'tibordan chetda qolmayotkanliklarini his ettirmoqda. Alohida ta'limga muhtoj o'quvchilar - bu ajoyib iste'dod, o'rganish yoki xatti- harakatlaridagi qiyinchiliklar, sog'lik muammolari, nogironlik yoki uzoq vaqt davomida o'qishga qatnashmaslik o'quv mazmuniga, o'quv jarayonlariga yoki o'quv muhitiga o'zgartirishlar kiritish yoki moslashtirish zaruriyatini tug'diradigan o'quvchilardir.

Alohida ta'limga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ularni taraqqiy etishi va jamiyatga ijtimoiylashuvini ta'minlash davlatimizning dolzarb siyosiy masalalaridan biridir. Ma'lumki, bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, uning ijtimoiylashuviga xizmat qiladigan asosiy oila va oiladagi shaxslararo munosabatlardir. Shu bois bola tarbiyasi va ta'limi samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri ota-onalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi darajasi bilan belgilanadi.

Bu ularning o'z farzandlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, aqliy rivojlanish sifatining asosiy xususiyatlari va ularning yosh me'yorlariga muvofiqligi va hissiy-ijobiy ijtimoiy roli hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shu aytib o'tish joizki tashkil etilgan Inklyuziv ta'lim shakli sog'lom bolalarga ham ularga qo'shilgan imkoniyati cheklangan bolalarga ham birdek foyda keltiradi. Inklyuziv ta'lim orqali sog'lom bolalarni ham mehr- muruvvatli bo'lishga, yordamga muhtoj bo'lgan insonlarga befarq bo'lmaslikka, tengdoshlariga yordam berish, insonparvarlik tuyg'ularini shakllanishiga yordam beradi. Imkoniyati cheklangan bolalarda esa hamma qatori jamiyat a'zosi ekanligini his etish va o'z- o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi.

References:

1. **M. A. Sharipov**, "Inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollari va muammolari", Toshkent, 2021.
2. **N. Q. Ergasheva**, "Ta'lim va tarbiya jarayonida inklyuzivlik tamoyillari", Toshkent, 2020.
3. **B. S. Abdullayeva**, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limini tashkil etishning metodologik asoslari", Samarqand, 2022.
4. **X. X. Raximov**, "O'zbekistonda inklyuziv ta'limning amaliyotga tadbiiq etilishi", Toshkent,

2020.

5. Jo'rayev, S., & Abdurasulov, J. (2024). SUBJECT, TASKS AND CONTENT OF STUDYING THE BASICS OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(7), 149–153. извлечено от <https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/13106>
6. Meyliyeva, M. S. (2024). Specific aspects of the formation of student professional motivation through an individual approach. International education and innovative sciences, 1(9), 347-357.
7. Abduqodirova D., Pardaboyeva M. THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS'DECISION-MAKING //INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES. – 2024. – T. 1. – №. 7. – C. 27-30.
8. Zukhra Mirzotillovna Radjabova. (2023). Features Of Adolescent And Teacher Cooperation In The Current Period In Choosing A Profession. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 210–215. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/131>